Asar matnida "– *Ur!-m deydi o'shqirib – qo'lingdan kelsa ur! San ham erkakmisan, hajiqiz!* [4;31-b.] so'kishi Jonuzoq nutqida uchraydi. U ichib olib, magazinchi Ergash akani quruq tuhmatga tortib tashlagan paytiaytilgan. Qarg'ishlar odatda, kishi qattiq ranjiganda, biron narsadan norozi bo'lib, isyonini ifodalash paytida, olqish-duolar esa otaxonlar, onaxonlar nutqida ishlatilsa, so'kishlar erkak repertuariga xos ijro jarayoni hisoblanadi. So'kishlar, asosan, kishining jahli chiqqanida aytiladi.Bundan tashqari romanda *"padaringa ming la'nat", "ablah, Rayim oqsoqol", "onamning arvohi ursin", "qismatiga la'natlar o'qimoq", "nokas! Xotin emas, yuho", "xumparlar"* kabi so'kish va qarg'ishlar mavjud.

Adibning mahorati shundaki, u folklorizmlarni sun'iy ravishda joylashtirmaydi. Folklorizmlar matnning ichki ehtiyojidan kelib chiqadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Abduqayum Yo'ldoshev ijodida folklorizmlar adib poetikasining markaziy unsurlaridan biridir. Ularni faqat xalq og'zaki ijodiga murojaat qilish deb emas, balki milliy tafakkur shakllarini zamonaviy nasr strukturasiga singdirish usuli deb tushunish kerak. "Kasofat raqamlar" romanida folklorizm hodisasi, xususan oddiy va murakkab folklor unsurlarining badiiy talqini tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, asarda folklorizmlar nafaqat bezak elementi sifatida, balki muhim g'oyaviy-badiiy vazifani bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida folklorizm hodisasini yanada kengroq qamrovda o'rganish, turli yozuvchilar ijodi misolida qiyosiy tahlillar olib boorish maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunosliktadqiqotlarida raqamlar ramziyligi va mifologik tafakkur masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy asarlar misolida folklorizmni tahlil qilishga oid amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

[1]. Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1980, 34–35-betlar.

[2]. Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1982, 2-con, 55–58-betlar;

[3]. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар. Тошкент, "Фан", 2011, 18-bet..

[4]. Yo'ldoshev A. Kasofat raqamlar. "Yangi asr avlodi", 2023, 31-bet.

Atadjanova Sevara Bekmuratovna (Toshkent davlat Transport universiteti;
E-mail: sevaraatadjanova89@gmail.com)

O'ZBEK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek adabiyotida sayohatnoma janrining shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi mustamlakachilik siyosati, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari janrning badiiy-estetik qiyofasini belgilagan asosiy omillar sifatida yoritiladi. Muqimiy, Zavqiy, Hayratiy, Ahmad Donish, jadid adiblari hamda sovet va mustaqillik davri yozuvchilarining sayohat asarlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Tadqiqotda sayohatnoma o'zbek adabiyotida safar tasvirigina emas, balki milliy identitet, ijtimoiy tanqid va madaniy xotirani ifodalovchi muhim badiiy shakl ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *sayohatnoma, travelog, milliy identitet, tanqidiy realizm, ma'rifatparvarlik, jadid adabiyoti, badiiy publitsistika, mustamlaka davri, madaniy xotira, safar motivi, adabiy janr.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖАНРА ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В статье анализируются становление и развитие жанра путевых заметок в узбекской литературе в связи с историческими, общественно-политическими и литературными факторами. Колониальная политика, национальное пробуждение и просветительские идеи конца XIX – начала XX века рассматриваются как основные факторы, определившие художественно-эстетический облик жанра. На сравнительно-аналитической основе исследованы путевые произведения Мукими, Завки, Хайратий, Ахмада Дониша, представителей джадидской литературы, а также писателей советского периода и периода независимости. В исследовании обосновывается, что жанр путевых заметок в узбекской литературе является не только описанием путешествий, но и важной художественной формой выражения национальной идентичности, социальной критики и культурной памяти.*

Ключевые слова: *путевые записки, travelogue, национальная идентичность, критический реализм, просветительство, джадидская литература, художественная публицистика, колониальный период, культурная память, мотив путешествия, литературный жанр.*

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF THE TRAVELOGUE GENRE IN UZBEK LITERATURE

Annotation. *The article analyzes the formation and development of the travelogue genre in Uzbek literature in connection with historical, socio-political, and literary factors. The colonial policy, national awakening, and enlightenment ideas of the late 19th and early 20th centuries are highlighted as the main factors that shaped the artistic and aesthetic character of the genre. The travel works of Muqimiy, Zavqiy, Hayratiy, Ahmad Donish, Jadid writers, as well as Soviet and Independence-period authors, are studied on a comparative and analytical basis. The research substantiates that the travelogue in Uzbek literature is not merely a depiction of travel, but also an important artistic form expressing national identity, social criticism, and cultural memory.*

Keywords: *travelogue, travel writing, national identity, critical realism, Enlightenment, Jadid literature, literary journalism, colonial period, cultural memory, travel motif, literary genre.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mintaqaning madaniy va adabiy hayotida keskin burilish yasadi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida milliy taraqqiyot yo'llarining cheklanishi jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirib, xalq ongida milliy o'zlik va adolat g'oyalarining shakllanishiga turtki berdi. Ayniqsa, ziyolilar orasida voqelikni tanqidiy idrok etish ehtiyoji kuchaydi.

Bu davrda adabiyotning ijtimoiy vazifasi ham o'zgardi. An'anaviy estetik qarashlarga tayangan adabiyot endilikda xalq hayotidagi real muammolarni aks ettiruvchi muhim ma'naviy vositaga aylandi. Natijada tanqidiy realizm, satira va badiiy publitsistika rivojlanib, muallifning faol fuqarolik pozitsiyasi yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Ana shu tarixiy-adabiy jarayonlar fonida o'zbek adabiyotida sayohatnoma janri shakllandi. Ushbu janr muallifning safar davomida ko'rgan-kechirganlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy va madaniy muammolarni badiiy talqin qilishga xizmat qildi. Sayohatnoma Sharq va jahon adabiyotidagi sayohat yozuvlari an'analari ta'sirida rivojlangan bo'lsa-da, o'zbek adabiyotida u xalq taqdiri, milliy o'zlik va ijtimoiy adolatsizliklarni aks ettiruvchi muhim estetik hodisa sifatida shakllandi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida sayohatnoma janri hozircha mustaqil monografik tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'pchilik ilmiy ishlarda u muayyan adib ijodi yoki ma'lum bir adabiy jarayon tarkibida tahlil qilinadi. Shunga qaramay, ayrim olimlar sayohat motivi va safar bilan bog'liq matnlarning ijtimoiy-falsafiy hamda estetik mohiyatiga oid muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar.

N.Karimov, U.Normatov, B.Qosimov, A.Rasulov [1.2.3.4] XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi adabiy jarayonni o'rganar ekanlar, Muqimiy, Zavqiy, Hayratiy hamda jadid adiblari ijodida sayohat motivining ijtimoiy ongni uyg'otuvchi va tanqidiy tafakkurni shakllantiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida sayohat asarlari ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy tanazzul va milliy o'zlikni anglash masalalari bilan bog'liq holda talqin etiladi.

B.Qosimov Ahmad Donish asarlarini ma'rifatparvarlik va modernizatsiya g'oyalari bilan bog'laydi [3]. N.Karimov esa Behbudiy va Avloniy sayohat ocherklarini jadidlarning ma'rifiy dasturi bilan uzviy aloqada o'rganadi [1]. U.Normatov va A.Rasulov sayohatni adibning o'z milliy voqeligini boshqa makonlar fonida anglashiga xizmat qiluvchi estetik vosita sifatida baholaydilar.

Jahon adabiyotshunosligida sayohat matnlari "travel writing", "travel literature" va "travelog" atamalari doirasida keng tadqiq etilgan. M.L.Pratt sayohat yozuvlarini mustamlakachilik tafakkurining shakllanish mexanizmi sifatida talqin qilsa [11], P.Hulme va T.Youngs ularni madaniyatlararo muloqot hamda identitet masalalari bilan bog'liq holda tahlil qiladilar [12]. Bu nazariy qarashlar o'zbek sayohatnomalarini ham postmustamlaka nuqtayi nazaridan qayta o'rganish imkonini beradi.

Metodlar. Maqolada tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy va hermenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Sayohatnomalar tarixiy kontekstda o'rganilib, ularning mazmuniy va janr xususiyatlari aniqlanadi. Muqimiy, Ahmad Donish, Nodim, Behbudiy, Avloniy va boshqa adiblar asarlari o'zaro qiyoslanib, janrning evolutsion taraqqiyoti tahlil qilindi hamda matnlar semantik va stilistik jihatdan tahlil qilinib, sayohat obrazlarining ramziy ma'nolari ochib berildi.

Natija. O'zbek adabiyotida sayohatnoma janrining shakllanishi va taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy, adabiy hamda madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanganini ko'rsatdi. Chor Rossiyasi mus-

tamlakachiligi, milliy zulm va ijtimoiy tengsizlik sayohatnoma janrining tanqidiy ruhda shakllanishiga zamin yaratgan bo‘lsa, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab satira va tanqidiy realizmning kuchayishi uning badiiy-estetik qiyofasini boyitdi. Shuningdek, safar va ziyorat an’analarining kengayishi adiblarning dunyoqarashini kengaytirib, sayohatnomani milliy madaniyat, tarixiy xotira va yurtshunoslik bilan bog‘liq holda shakllantirdi.

Muqimiyning “Sayohatnoma” asarida diniy riyokorlik, amaldorlar zulmi va jaholat tanqid qilinib, safar davomida uchratilgan makon va shaxslar orqali jamiyatning umumiy ijtimoiy manzarasi yaratiladi. Muqimiy boshlab bergan an’ana Zavqiy va Hayratiy ijodida davom etib, xalq hayoti, mehnatkashlarning turmushi hamda tarixiy-madaniy makon obrazlari badiiy talqin qilindi. Ahmad Donish asarlarida esa sayohat janrining falsafiy va tahliliy imkoniyatlari yanada kengayib, Rossiya taraqqiyoti fonida axloqiy bo‘shliq va ijtimoiy tengsizlik masalalari yoritildi. Jadid adabiyotida sayohatnoma ma’rifiy-publitsistik mazmun kasb etib, Behbudiy va Avloniy ijodida ilm-fan, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi muhim vositaga aylandi.

Sayohatnoma dastlab safar taassurotlarini ifodalovchi shakl sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik, jamiyatni badiiy idrok etishning muhim janriga aylandi. Safar motivi orqali adiblar nafaqat geografik makonlarni, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va milliy tafakkurni ham tahlil qildilar. Sayohatnomalarda makon tarixiy xotira, ijtimoiy muhit va milliy ongning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, janr tanqidiy realizm va ijtimoiy-falsafiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi.

Sovet davrida sayohatnoma ideologik nazorat ta’sirida bo‘lib, ko‘proq targ‘ibot vazifasini bajargan bo‘lsa-da, ayrim asarlarda ramziy ma’nolar orqali shaxsiy kechinmalar va madaniy xotira unsurlari saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida esa janr yangi bosqichga ko‘tarilib, tarixiy xotira, madaniyatlararo muloqot, shaxsiy tajriba va individual tafakkurni yorituvchi muhim badiiy shaklga aylandi. Natijada sayohatnoma o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, ijtimoiy tanqid va madaniy tafakkurni aks ettiruvchi muhim estetik hodisa sifatida shakllanganligi aniqlandi.

Xulosa. O‘zbek adabiyotida sayohatnoma janri XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda adabiy tafakkur evolyutsiyasining bevosita mahsuli sifatida shakllandi. Ushbu janr tanqidiy realizm va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib, milliy identitetni anglash va jamiyatni badiiy tahlil qilishning muhim vositasiga aylandi.

Sayohatnoma asarlarida safar motivi orqali tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ongning turli qatlamlari badiiy ifoda topdi va mazkur janr o‘zbek adabiyotining nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’rifiy funksiyalarini ham boyitdi. Bugungi kunda sayohatnoma janri milliy adabiyot taraqqiyotini, madaniy tafakkur dinamikasini va jamiyatning tarixiy o‘zini anglash jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov N. Jadid adabiyoti va ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent, “Fan”, 2011, 256-bet.
(2). Normatov U. O‘zbek adabiyoti tarixi masalalari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2007, 312-bet.
(3). Qosimov B. Ahmad Donish va Markaziy Osiyo ma’rifatparvarligi. Toshkent, “Fan”, 2004, 198-bet.
(4). Rasulov A. Mumtoz va yangi o‘zbek adabiyoti: izlanishlar va tahlillar. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 284-bet.
(5). Muqimiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 320-bet.
(6). Zavqiy. Asarlar. Toshkent, “Fan”, 1978, 210-bet.
(7). Hayratiy. Saylanma. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981, 176-bet.
(8). Donish A. Navodir ul-vaqoe’. Toshkent, “Fan”, 1960, 245-bet.
(9). Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Sharq”, 1999, 352-bet.
(10). Avloniy A. Tanlangan pedagogik va publitsistik asarlar. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1988, 304-bet.
(11). Pratt M.L. Imperial Eyes: Travel Writing and Transculturation. London, Routledge, 1992, 257 p.
(12). Hulme P., Youngs T. The Cambridge Companion to Travel Writing. Cambridge, Cambridge University Press, 2002, 302 p.

Soatova Shahnozabonu Farhod qizi (Guliston davlat universiteti, 10.00.02-adabiyotshunoslik tayanch-doktoranti; E-mail: shahnozasoatova@gmail.com)

ASAR TAHLILIDA ILMIYLIK VA DIDAKTIK UYG‘UNLIK

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asar tahlilida ilmiylik va didaktik yondashuvning o‘zaro uyg‘unligi masalasi yoritiladi. Adabiy tahlil jarayonida nazariy bilimlarning ahamiyati, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishdagi didaktik usullar hamda asarni chuqur anglashda ilmiy tahlilning o‘rni tahlil*